



№1(5)  
2025

ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ  
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

# MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMIY-METODIKALÍQ JURNAL

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ  
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR  
MINISTRIGI**

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT  
MINISTRIGI**

**ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ  
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ  
*Ilmiy-metodikalıq jurnal***

**MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI  
*Ilmiy-uslubiy jurnal***

**ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА  
*Научно-методический журнал***

**BULLETIN OF MUSIC AND ART  
*Scientific-methodical journal***

**№ 1(5)/2025**

# **SHÓLKEMLESTIRIWSHI:**

## *Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali*

**Bas redaktor:** – Allanbaev Rudakiy, professor

**Juwaplı xatker:** – Kamalova Dilfuza, filologiya ilimleri boyinsha filosofiya doktori, docent.

### **REDKOLLEGIYA AĞZALARÍ:**

**OZODEBK NAZARBEKOV** – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

**AZIZBEK TURDIEV** – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri máslahátshisi, filologiya ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD);

**BEGIS TEMIRBAEV** – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, docent;

**KAMOLIDDIN URINBAYEV** – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

**OMONILLA RIZAEV** – kórkem ónertaniw ilimleriniń kandidati, professor;

**HIKMAT RAJABOV** – professor;

**ORAZALI TOSHMATOV** – professor;

**BAXT AZIMOV** – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

**MUHABBAT TOLAXOJAева** – kórkem ónertaniw ilimleriniń doktorı, professor;

**MARFUA XAMIDOVA** - kórkem ónertaniw ilimleriniń doktorı, professor;

**BOLTABOY SHODIYEV** - kórkem ónertaniw ilimleriniń doktorı;

**OZODA TOSHMATOVA** - kórkem ónertaniw ilimleriniń doktorı, professor;

**SAYYORA ĞAFUROVA** – professor;

**OYDIN ABDULLAEVA** – professor;

**IRODA MIRTALIPOVA** –kórkem ónertaniw ilimleri boyinsha filosofiya doktorı (PhD);

**PARAXAT MAMUTOV** – kórkem ónertaniw ilimleri boyinsha filosofiya doktorı (PhD);

**QURBANBAY JARIMBETOV** – filologiya ilimleriniń doktorı, professor;

**ALIMA BERDIMURATOVA** – filosofiya ilimleriniń doktorı, professor;

**ZIYADA BEKBERGENOVA** – filologiya ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

**ALIMA PIRNIYAZOVA** –filologiya ilimleriniń doktorı (DSc);

**YUSUPOV QONÍSBAY** – pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

**UTEBAEV TAJIBAY** - pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

**SEYTKASIMOV DAULETNAZAR** - pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc);

**ARTÍQBAY EREJEPOV** – pedagogika ilimleri boyinsha filosofiya doktorı (PhD), docent;

**JAÑABAY MARZIYAEV** – filologiya ilimleri boyinsha filosofiya doktorı (PhD), docent;

*Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarılıadi. Jurnal Ózbekstan Respublikasi Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciyalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.*

**Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanhı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertaniw ilimleri jónelisi boyinsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵariw ushın arnalǵan jetekshi ilimiý jurnallar qatarına kiritilgen.**

*Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Turan oypati 29-jay.*

*E-mail:[ozdknf@edu.uz](mailto:ozdknf@edu.uz), UZDK\_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>*

**ISSN-2181-4112**

## MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

### **MUSIQA-IJROCHILARNI TANLOVLARGA TAYYORLASHDA USTOZ VA OILANING ROLI**

**Umarova V.A.**

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ijrochi-musiqachining oilaviy musiqiy tarbiyasi va uning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va ustozning tutgan o‘rni. O‘qituvchi va oila tanlovlarga tayyorlash jarayonida, ijrochining kasbiy darajasini oshirish, shu bilan birga zarur shart-sharoitlarni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Muallif maqolada ijrochi-musiqachining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsnинг shakllanishidagi oila ichidagi munosabatlarni ko‘rib chiqqilgan.

**Kalt so‘zlar:** ijrochi musiqachi, o‘qituvchi, oila, shaxs, madaniyat, qobiliyat, rivolanish, iste’dod.

**Аннотация:** Данная статья акцентирующая внимание на значимости семейного музыкального воспитания музыканта- исполнителя и его влияние на дальнейшее развитие музыкальных способностей. Педагог и семья обеспечивает необходимые условия для обучения и профессионального роста музыканта-исполнителя. Автор в данной статье рассматривает внутрисемейные отношения в формировании личности, что имеет прямое отношение к развитию музыканта-исполнителя.

**Ключевые слова:** музыкант-исполнитель, педагог, семья, личность, культура, способность, развитие, талант

**Annotation:** This article focuses on the importance of family musical education of a musician-performer and its influence on the further development of musical abilities. The family provides the necessary conditions for the training and professional growth of a musician-performer. The author in this article examines intra-family relationships in the formation of personality, which is directly related to the development of a musician-performer.

**Key words:** musician-performer, family, personality, culture, ability, development, talent

**Kirish:** Ustoz - ijrochilik san’atida shaxsiyatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy va psixologik omildir. Musiqa-ijrochi ustozdan olgan bilim va ko‘nikmalarini butun umrga saqlab qoladi.

Ustoz bolaga turli xil ahloqiy modellarni taqdim qiladiki, u kelajakda aynan ularga tayanadi, sababi bu modellar bola shaxsining shakllanishiga, uning o‘y-hayollar olamiga, his-tuyg‘ulariga, o‘z “men”ini tarbiyalashga intilishiga hal

qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda nafaqat ustoz, balki oila xam muhim ijtimoiy muhit ekan, uning o'z qonun-qoidalari va ahloq me'yorlari ishlaydiki, bu insonning kelajak hayoti uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi. U aynan oilada o'z hatti-harakatlariga nisbatan ilk bor odamlarning munosabatini ko'radi, o'zi uchun taqlid etalonini tuzadi, ma'naviy qadriyatlar, madaniy an'analar, tajriba va ahloq me'yorlariga ega bo'lib, hayot manzarasini chizadi. Bo'lajak katta odam butun hayoti davomida o'zi olgan va o'zlashtirgan bilimlariga asoslanib yashaydi. Bolalikda olingan taassurotlar insonning kelajakdagi faoliyati, uning hayot tarzini belgilab beradi.

**Asosiy qism:** Shaxsning shakllanishida ustozning, shu bilan birga oilaning ta'siri ko'plab pedagog va psixologlar tomonidan e'tirof etilgan. Ulkan miqdordagi mahalliy, rus va horijiy mualliflar ishlari mazkur muammoni o'rganishga bag'ishlangan. Shunday bo'lsa-da, bola shaxsining shakllanishida oilaning roli dolzarbligicha qolmoqda. Bunda ko'p jihatdan hayotning zamonaviy omillari ta'siri bo'lib, bular ota-onaning o'ta bandligi; notinch oilalar foizining yuqoriligi; ota-onalarning savodlilik darajasi; oila tarkibi; bolalar faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning befarqligi, bolalikning kompyuterlashtirilishi; ota-onaga tarbiyaviy masaladagi bilimni yetishmasligi va h.k.

Oila va ichki oilaviy munosabatlar muhiti shaxsning shakllanishida hal qiluvchi omil sanaladi. Shaxsning kelajakdagi rivoji, uning o'ziga va atrofdagilarga munosabati ko'p jihatdan ota-onaning bolaga munosabatiga, uning ruhiy talablarining qondirilishiga bog'liqdir.

Ijtimoiy hayotning ajib voqelagini tasavvur qilgan holda, oila fenomenini o'rganish, fanlararo tadqiqotlar oldida turgan va turli soha mutaxassislarining kompleks yondashuvini talab qilgan masaladir. Bunda shaxs rivojlanishiga nisbatan psixodinamik yondashuv namoyandalarining (K.Xorni, A.Adler, V.Shuts) nazariy-metodologik qarashlari metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkinki, ular fikriga ko'ra, oilada olingan munosabatlar tajribasi shaxs rivojini belgilab beradi va bola hamda ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Mazkur muammoni o'rganishga bag'ishlangan A.N.Leontev, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteyn tadqiqotlarida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar, shuningdek, D.B.Elkonin, M.I.Lisin, I.S.Kon, A.V.Mudrik, V.E.Paxalyan ishlari ham fundamental baza bo'lib xizmat qiladi. Taassufki, oilaviy musiqiy ta'lim va tarbiya masalalariga bag'ishlangan ishlar ko'p emas, shunday bo'lsa-da, L.Matveeva, N.Kartashev va S.Feruz kabi tadqiqotchi olimlarning izlanishlari mavjud.

Oila – sog'lom shaxs rivoji uchun birmuncha qulay muhit bo'lib, individning ijtimoiy holatini shakllantirishda mehr-muhabbat, g'amho'rlik va hurmat, tushunish va qo'llab-quvvatlash kabi jiddiy ustunliklarga egadir. Kattalarning

bolaga nisbatan ziyrak diqqat-e’tibori uning qobiliyatini o‘z vaqtida payqash, qiziqish va moyilliklarini shakllantirishda qo’llab-quvvatlash imkonini beradi. Bolaning rivojlanishi – nihoyatda murakkab va qarama-qarshi jarayon bo‘lib, unda deyarli barcha intellektual, ijtimoiy va ma’naviy sifatlar izchil shakllanadi va ularning aksariyati butun umri davomida o‘zgarmay qoladi.

Tabiiyki, bolalar oilada rollar hulqining o‘zgarishi orqali o‘rganadilar, ya’ni o‘zlarini obrazga qarab, kattalarga, va birinchi navbatda ota-onalarga, ustozlarga taqlid qilib dasturlashtiradilar. Birinchidan, inson shaxsi shakllanishining asoslari oila munosabatlarida qo‘yiladiki, unda bola uchun uning ota-onasi ahamiyatlari odamlar bo‘ladi, ular orqali hulqning ilk namunalarini o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, ota-onsa bolaning “Men” konsepsiyasini rivojlanishiga ta’sir qilish imkoniga ega, sababi, u jismoniy, hissiy va ijtimoiy jihatdan ota-onaga bog‘langandir. Ustoz tomonidan qo‘yilgan talablar, ushbu talablarni amalga oshirish shakli, so‘z tanlash, oilada bo‘s sh vaqtini tashkillashtirish, do‘srlar va qo‘shnilar bilan munosabatlar, va bu haqidagi suhbatlar – bularning barchasi bolani tarbiyalaydi, uning xotirasida muhrlanadi, va eng muhimmi bu jarayon u ishongan odamlardan ekani muhim ahamiyat kasb etadi.

Ustoz va oila bolani jamiyatdagi mustaqil hayotga tayyorlaydi, unga ma’naviy qadriyatlar, ahloqiy me’yorlar, hulq namunalari, an’analar, jamiyatining madaniyatini anglatadi. Ota-onaning yo‘naltiruvchi, ma’qullangan tarbiyaviy metodlari bolani erkin bo‘lishga o‘rgatadi, ayni paytda u ahloqiy me’yorlarga muvofiq o‘z hatti-harakatlarini boshqarishni o‘rganadi. Bolada qadriyatlar olami shakllanadi. Ushbu har tomonlama rivojlanishda ota-onsa o‘zining hulqi va shaxsiy ibratlari bilan bolaga katta yordam beradi.

Musiqa madaniyati tarixida musiqa san’atining rivoji va gullab-yashnashi yorqin musiqiy sulolalarning sermahsul faoliyati bilan uzviy bog‘liq ekanligiga ko‘plab misollar mavjudki, ularning namoyandalari ijodiyotning turli sohalarida erishgan buyuk yutuqlari, o‘zlarining umumiy va xususiy hissalarini bilan musiqa san’ati rivojiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatganlar, bu bir tomonidan ijtimoiy fenomen bo‘lsa, boshqa tomonidan – oila tarbiyasi va ta’limining yorqin institutidir.

“Musiqiy sulolalar” atamasi avvalo o‘zida oilaviy professional orientatsiyani jamlagan fenomen sifatida, tabiiyki, ta’lim-tarbiya modellarining noyobligi va jahon madaniyati fondining rivojlanish strategiyasi hamda O‘zbekiston milliy madaniyati masalalarini o‘rganadi.

Turli sohalar ilmiy bilimlarining (tarix, sotsiologiya, genetika, oilaviy pedagogika va psixologiya, musiqa ilmi) rivojlanishi bilan professional sulolalarga ijtimoiy voqelik sifatida qaraladi, va ularga bo‘lgan qiziqish nafaqat avlodlar va nasliy genetik omil mezonlarining almashinushi, balki o‘qitish tamoyillari va modellari, oilaviy bilimlar va malakalarni yetakazishdagi individual strategiya

nuqtai-nazaridan namoyon bo‘ladi. Professional mavjudlikning bunday modeli musiqa ijodiyotida muvaffaqiyatga erisha oladigan oilaning yuqori shaxsiyat zahirasiga ega. Ijtimoiy maydondagi professionallik silsilasi badiiy ijodning ommaviy makonida, raqobatchilik faoliyati, o‘zlikni shakllantirish va imkoniyatlarini ommaga taqdim qilgan holda, erta ishga tushadi. Shu nuqtai nazardan, professional silsilalarning oilaviy omil roli xususan, tanlovlarga tayyorlanishda bir xil emas. Turli tanlovlar san’atlarning oliy forumi bo‘lib, yosh iste’dodlarni izlab topish va ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Uning ahamiyati jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari va institutlarining o‘zaro hamjihatligi, xalqaro maydonda madaniyat va san’at darajasini ko‘tarish bilan belgilanadi. Umuminsoniy qadriyatlarning san’at orqali yoyilishi jahon madaniy merosini avaylab-asrash va amaliyotga tatbiq qilishga yordam berishi kerak. Ishtirokchilarining ijodiy, shaxsiy, intellektual salohiyatini ohib beruvchi turli nufuzli tanlovlar aynan shu maqsadlarga ko‘maklashadi. Tanlovlarning kasbiylik borasida qo‘lga kiritgan “muvaffaqiyat darajasi” yosh avlod vakillarini ijodiy harakatini tengdoshlariga nisbatan ancha erta boshlanishiga va tez harakatlar bilan olg‘a yurishga undaydi. Aynan oilaning ijodiy muhiti o‘z faoliyati bilan individuumga ijodiy musobaqalar orqali madaniy qadriyatlarni muvaffaqiyatli ilgari surishda katta yordam beradi. Psixogenetika asoschilaridan biri ingliz olimi F.Galton, o‘zining iste’dod vorisligiga bag‘ishlangan asarida ushbu masalaga ilk bor jamoatchilik e’tiborini qaratib, tarixan iste’dodli, daho insonlarni tug‘ilishi va ularni kelib chiqishi uchun zamin yaratgan omil va sabablar, jumladan, vorislikning ahamiyatini ilk bor yoritishga qo‘l urgan.

Musiqachida ijrochilik san’atini yanada oshirish jarayonida birinchi galda musiqiy qobiliyat zarurati masalasi va samarali natijalarni qo‘lga kiritishda ustoz va oilaviy ta’lim tarbiyaning ahamiyati ko‘ndalang ko‘yilgan. Ma’lumki, ushbu masalani o‘rganish uchun jahon ruhshunoslari tomonidan ko‘plab tajribalar amalda sinalgan. Rossiyalik olima, san’atshunoslik fanlari doktori, pedagog D.K.Kirnarskayaning «Musiqiy qobiliyat» nomli tadqiqoti, aynan musiqiy qobiliyat bilan bog‘liq keng doiradagi masalalarni tahlil etgan. Olima keltirgan ma’lumotlarni o‘rganib, tarixiy va ijtimoiy tajribalar asosida chiqargan qimmatli xulosalari, musiqiy qobiliyat va iste’dodning tug‘ma va vorislik asosini belgilab berishda e’tiborga molik: “Har bir inson ko‘z ilg‘amaydigan “daholik chizgisida” turadi: farzandlarini tug‘ilishi va tarbiyalanishi asosida u uning avlodining avvaldan dasturlashgan maqsad murodi, sababini – bo‘lajak daho tug‘ilishiga yaqinlashtiradi. Tabiat in’om etgan iste’dodni rivojlantirish va irsiy ravishda uni kuchaytirishga moyil juftlik topish taqdir yordami va ko‘magi bilan amalgalashadi: bir birini izlagan juftliklarda daholikni otilib chiqishi haqida faqat u voqif” [1: 495].

Ijrochi - musiqachining tanlovlarda, konsertlarda ishtirok etishi va ularning shakllanayotgan ijrochilik tajribasi, shu bilan birga kasbiy bilim va ko'nikmalari, ixtisoslik va kasb yo'naliishida qo'lga kiritgan yutuqlar, zamonaviy ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda tayanch poydevor bo'lishi mumkin. Bu jarayonda Ustoz va oilaning qo'shishib kelayotgan hissasi, musiqa san'ati va ta'lim jarayonini boshqarishda amaliy ko'mak berishi ta'kidlanadi.

**Xulosa:** Bugungi kunida musiqiy pedagogika va psixologiya bilan bog'liq bo'lgan muammolardan biri musiqachini sahnaviy chiqishlari muhim ahamiyatga ega ekanligi, ijrochi musiqachining shaklanishida, kasbiy faoliyatini rivojlanishi uchun unga yangi qirralarga yo'l ochib berish kabi masalalari keng o'r ganib kelmoqda. Ijro musiqachining tarbiyalash kabi muhim ma'naviy-ma'rifiy masalalarni ijobjiy hal etish jarayonida "Ustoz-shogird" faoliyatining an'analari targ'ib etilish, oila a'zolarning tutgan o'rni, yaratilgan shart-sharoitlarini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Кирнарская Д. Музыкальные способности. – М.: «Таланты-XXI век», 2004. - С.495
2. Гальтон Ф. Наследственность таланта. Её законы и последствия: Пер. с англ. // Ф.Гальтон. – СПб., 1875. – С.299 .
3. Аптикиева Л.Р. Семья как фактор личностного развития ребёнка// Вестник ОГУ. 2014. №7 (168)

## MAZMUNÍ

## MUZÍKATANÍW

1	<b>Ходжаметова Г.И.</b> КАРАКАЛПАКСКАЯ ТРАДИЦИОННАЯ МУЗЫКА КАК ПЕРВООСНОВА СОЧИНЕНИЙ ФОРТЕПИАННОЙ МУЗЫКИ	3
2	<b>Charshemov J.</b> P.XINDEMITNING “LUDUS TONALIS” TSIKLINING GARMANIK TAXLILI	10
3	<b>Мухаммедниязов К.Т.</b> ИЗУЧЕНИИ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОСВЯЗИ МУЗЫКИ И СЛОВА НА ПРИМЕРЕ «ПОЭТИКИ» АРИСТОТЕЛЯ	16
4	<b>Abatbaeva R.O.</b> XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QORAQALPOQ MUSIQASI	22
5	<b>Сайдхонов А.С.</b> ДВЕНАДЦАТЬ ГРАНИ СОВЕРШЕНСТВА (На примере трансцендентные этюды Ференца Листа)	29
6	<b>Жумабаев А.Е., Муратбаева А.А.</b> МУЗЫКАЛЬНАЯ ФОЛЬКЛОРISTИКА	42
7	<b>Saburova U.M.</b> LYUDVIG BETXOVEN IJODIDA VARIATSION SHAKL	48

## KÓRKEM ÓNER

8	<b>Allanbaev R.O.</b> QORAQALPOQ KOMPOZITORLARI ASARLARIDA MUSIQIY DRAMALAR	53
9	<b>Abdullaev F., Muratbaev A.</b> QARAQALPAQSTANDA DEMLI ORKESTRINIŃ DÚZILIWI HÁM ONÍŃ RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	59
10	<b>Qurbanazarov P.</b> DAMLI CHOLG'ULAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	65
11	<b>Shermatov K.E.</b> BUYUK ALLOMALAR ABU ALI IBN SINO VA ABU NASR FAROBIYLARNING MUSIQIY MEROSI	73
12	<b>Abdullaeva U., Razatdinova A.</b> KOMPOZITOR KEÑESBAY ABDULLAEVTÍŃ QARAQALPAQ XALÍQ NAMALARÍNÍŃ RAWAJLANÍWÍNA QOSQAN ÚLESI	80
13	<b>Александрова О.А.</b> ПАМЯТИ ОПЕРНОГО ПЕВЦА КУРКМАСА МУХИТДИНОВА	86
14	<b>Allaniyazov B.</b> SKRIPTKANING TARIXIY RIVOJLANISH JARAYONI	91
15	<b>Erejepov A.A.</b> QARAQALPAQ BAQSISHILIQ MEKTEPLERINIŃ ATQARIWSHILIQ KÓRKEM ÓNERI ÓZGESHELIKLERİ HAQQINDA	98

16	<b>Kamalova G.M.</b> HIKMAT RAJABOVTIŃ DÓRETIWSHILIGINE TÁN ÓZGESHELIKLERİ	104
17	<b>Dosimbetov B.X.</b> CHOLG'U IJROCHISINI KONSERT VA SAHNA NAMOYISHIGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	113
18	<b>Zuxurov M.M.</b> DIRIYORLIQTA QOL HÁREKETLERINIŃ DURIS ATQARILIWI HÁM OLARDI RAWAJLANDIRIW	120
19	<b>Embergenova G.A., Yo'ldoshev L.E.</b> XOR ASARLARINI TAHLIL QILISH OMILLARI	130
20	<b>Paxratdinova L.Sh.</b> SKRIPKA SAZ ÁSBABÍ TARIYXÍ	136
21	<b>Karimova I.I.</b> SKRIPKA SAZ ÁSBABÍNA SHÍGARMA JAZĞAN DÓRETIWSHILER HÁM PROFESSIONAL ATQARÍWSHÍLAR ÁHMIYETI	145
22	<b>Rejepov Sh.B.</b> GÁYÍP DEMESINOVTÍN FORTEPIANO DÓRETIWSHILIGI ("Prelyudiya"ları misalında)	153
23	<b>Mamutov P.A.</b> TEATRDÍN TARIYXÍY QÁLIPLESIWI HÁM DRAMATURGIYANÍN RAWAJLANIW BASQÍSHLARÍ	159

#### MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

24	<b>Umarova V.A.</b> MUSIQA-IJROCHILARNI TANLOVLARGA TAYYORLASHDA USTOZ VA OILANING ROLI	164
25	<b>Tnibaev P.K.</b> DAMLI CHOLG'ULARNI TALABALARGA O'RGATISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA METODLAR	169
26	<b>Элмуродова Г.А.</b> СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКИ ПО ПРЕДМЕТУ ФОРТЕПИАНО (НА ПРИМЕРЕ ЭТЮДОВ К. ЧЕРНН)	173
27	<b>Iseev R.</b> FORTEPIANO ATQARÍWSHÍLÍGÍNDA POLIFONIYA JANRÍNÍN AHMIYETI. POLIFONIYALÍQ SHÍGARMALAR USTINDE JUMÍS ALÍP BARÍW	180

#### JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28	<b>Jabbarov I.A., Bazarbaeva N.I.</b> MOBILE APPLICATIONS AS A CONTEMPORARY INSTRUMENT FOR ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING	187
29	<b>Marziyaev J.K.</b> JOQARÍ OQÍW ORÍNLARÍNDA JURNALIST QÁNIGELERDI TAYARLAW	194
30	<b>Kalimbetova S.A.</b> O'ZBEK JADID DRAMATURGIYASI VA TEATRI ("Padarkush" va "To'y" dramalari misolida)	201

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER  
XABARSHÍSÍ**

*Ilimiy-metodikalıq jurnal*